



ARTICLE INFO

Received: 27th October 2022
Accepted: 06th November 2022
Online: 08th November 2022

KEY WORDS

Iqtidorli o'quvchilar, oila, qobiliyat, kommunikativ va tashkilotchilik.

Yoshlar nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, iqtidorini yuksaltirish, muomala madaniyatini tarkib toptirishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, o'smir va o'spirin yoshdagi iqtidorli bolalarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shuningdek, tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi. Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta

IQTIDORLI O'QUVCHILARNING QIZIQISHLARINING PSIXOLOGIK JIXATLARI.

Kayumova Go'zal Narzullayvna¹

¹TerDu Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Sheraliyeva Shoxsanam Shaxzod qizi²

²TerDu Amaliy psixologiya yo'nalish talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7304039>

ABSTRACT

Ushbu maqolada Iqtidorli o'quvchilarning qiziqishlarini psixologik jixatlarini ochib berishga harakat qilingan.

maktab o'z faoliyatini boshlaydi. Iqtidorli o'g'il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etamiz. Ushbu oliygohda chet eldagi yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi. " deb ta'kidlangan. O'quvchilar iqtidori va tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini ya'ni kommunikativ va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirib, qobiliyatlarini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Yozma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, ma'ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli refleklar paydo bo'lishining umumiy qonunlari



asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib qolgan bo'lsa, unda bu kamchiliklarni tugatish qiyin bo'ladi.

Shuning uchun bolalarda yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur. Bu esa ularning iqtidorini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish avvalo muloqot madaniyatini shakllanishiga bog'liqdir.

Iqtidor-bu hayot davomida psixikani rivojlanish tizimidir. Bunda iqtidor u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda kuzatiladi. Iqtidor-bu muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi qobiliyatlarning o'ziga xos shaklidir. qobiliyatlarning o'zaro muvofiqligi boshqa qobiliyatlardagi kamchiliklarni to'ldirishga xizmat qiladi. Umumiy qobiliyatlar shaxs imkoniyatini, uning faoliyatini o'ziga xos jihatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi; - qobiliyatlarning layoqatini, tabiiy asoslarini xarakterini aks ettiradi; - faoliyatdagi muvaffaqiyatni namoyon qiluvchi ichki sharoitdan biri talantdir. Iqtidorli bola-bu u yoki bu faoliyatda yorqin. Ba'zida uzluksiz muvaffaqiyatlari bilan ajralib turuvchi boladir.

Ma'lumki har bir hududda ta'lim jarayoni davomida bolalarning qiziqishlari, istaklari, kelajakdagi tanlayotgan kasblari haqida maktab psixoloklari tomonidan aniqlab boriladi. Ushbu natijalar asosida bolalarning kasbiy layoqatlari qaysi sohaga to'g'ri kelishiga qarab maslahat beriladi. Bundan tashqari oila azolari ham bolaga e'tabor berib uning holatidan kelib chiqqan holda kasbga yunaltirish lozim. Agarda bolaning tanlagan sohasi va oila a'zolari tanlagan soha har xil bo'lsa ya'ni bolani qiziqishlarini e'tiborga olmagan

holda o'zlari biron bir soha egasi bo'lishini tayinlab kelsa u holda bolada kasbga bo'lgan motivatsiya so'nib boradi ota onasi tanlagan sohadan borishi mumkin ammo shu sohaning yetuk mutahasisi bo'la olmaydi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bolaning kasbga bo'lgan qiziqishlarini e'tiborga olish lozim. Bolalar maktabgacha bo'lgan davrda kattalardan asosan ko'p savol so'rashadi bu savollarga javob berishga erinishadi. Shu vaqtda bola o'zining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda savol bergan bo'ladi. Iqtidorli yoshlar tug'ma bo'lishi ham mumkin masalan: rassom odamning qizi ham rasom bo'lishi, otasidagi rasm chizishga bo'lgan qiziqish, iqtidor unga ham o'tishi mumkin. Iqtidorli bolalar boshqa bolalarga nisbatan har bir ta'lim tizimida ajralib turadi. Bu uning o'zi qiziqayotgan sohaga salohiyati yuqoriligini bildiradi iqtidorli bolalarning asosiy belgilari bu bajarayotgan harakatni "men bajara olaman", deb o'ziga katta ishonch berishidir. Bundan tashqari ta'lim jarayonida agarda unga psixologlar va o'qituvchilar tomonidan motivatsiya berilsa u holda bola o'z ustida ko'proq ishlaydi bu degani ozgina kamchiliklarga ko'z yumgan holda "sen bundanda yaxshi uddalay olasan", kabi motevatsiyalar, ishonch berilsa, bolada yanada qiziqish ortib u keying safar inson aqli shoshadigan iqtidorlar qilishi mumkin. Agrda ko'p tambexlar berib ishonchsizlik bildirilsa bola tushkunlikka tushib qiziqishlari so'nib borishi mumkin. Lekn albatta shu iqtidor umri mobaynida yuzaga chiqarilmasa ham saqlanib qoladi. Ko'pchilik psixolog olimlar tomonidan e'tirof etiladi bazi bir odamlar o'zlarida bor iqtidorini bilmaydi yoki bo'lmasa iqtidorini namoyish qilishdan tortinishi



mumkin buning sababi esa shunday insonlarning fikirlarini kattalar so'rashmagan va ularning qiziqishlarini namoyon etishga sharoit yaratilmagan bo'lishi ham mumkin hozirgi ayni vaqtda zamonaviy psixologlar ush bu masalani ijobiy hal qilgan holda bolaning qiziqishini ta'lim muasasida turli metodlar orqali aniqlab va natijalar asosida ularga yo'l yo'riqlar ko'rsatib kelinmoqda. Test natijalari asosida bolaning qaysi sohaga bo'lgan qiziqishi ,

iqtidori yuqori bo'lsa shu sohani tanlash maslahat berilaadi shu asosida iqtidorini namoyon qila olmaydigan bolalar ham o'zlarini test orqali namoyon qilishi mumkin . Iqtidorli bolalar boshqa sohalarga qaraganda o'z tanlagan sohasini o'ziga hos tarzda hechkimnikiga o'xshamaydigan qilib namoyon qiladi . Ular o'zlari tanlagan sohasi bo'yicha qiyinchiliklarni oson yengib o'tadi chunki ular chindildan qiziqadilar, natijasidan baxra oladi.

References:

1. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 308-311.
2. Ismoilovna, A. Z., & Narzullayevna, K. G. (2022). In the Process of Forming a Person, Overcoming the Emotional State in The Family Environment. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 6, 31-33.
3. Narzullaevna, G. K. (2022). Psychological analysis of factors that destroy family strength. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1528-1523.
4. Usmonovna, N. A. (2022). Raising children is the biggest responsibility. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1524-1529.
5. Usmonovna, A. N. (2022). FARZAND RUHIY TARBIYASIDA OTA-ONANING MA'SULLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B3), 477-480.
6. Narzullayevna, K. G. (2022). Psychological effects of motivation of marriage in young people on family strength. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 301-303.
7. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 204-206.
8. Жумаева, Г. Ў. (2022). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ БЕГОНАЛАШУВНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B3), 428-431.